



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,  
12-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish .....	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar .....	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults .....	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха" .....	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish .....	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari .....	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari .....	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari .....	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish .....	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni .....	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish .....	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Oloqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi .....	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati .....	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish .....	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari .....	98
<b>Umurov Sharif Rajabovich</b>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash .....	102
<b>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi</b>	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта .....	106
<b>Панжиева Назолат Норматомовна</b>	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации .....	111
<b>Тураева Дилфуза Даминовна</b>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri .....	116
<b>Abdug'aniyeva Saodat Shuhrat qizi</b>	
Blended Learning Pedagogy in University EFL Writing Courses: Effects on Linguistic Accuracy and Learner Autonomy .....	120
<b>Inomidinova Dildorxon Ikramovna</b>	
O'smirlik davrida psixologik rivojlanishning muhim jihatlari va uning determinantlari.....	125
<b>M. S. Usmonova</b>	
The Relationship Between Grammar Knowledge and Writing Proficiency in EFL Learners .....	130
<b>Tahirova Shaxribonu</b>	
Особенности интерпретации юридических терминов в медиатекстах.....	139
<b>Хамидова Нигора Тулкуновна</b>	
Sportchilarning ijtimoiy moslashuvda murabbiy shaxsining roli .....	142
<b>Akbarova Maloxatoyimposhsha Saidto'ra qizi</b>	
Raqamli asrda yoshlarning media savodxonligi: ingliz tili og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda vlog yuritishning o'rni.....	146
<b>Akramova Yulduz Farxadovna, To'rayeva Maftuna Ravshanovna</b>	
Naqshbandiya ta'limotida psixospihritual paradigmalarning mohiyati .....	151
<b>Ashurova Gulru</b>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining hamkorlikdagi o'quv faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari.....	154
<b>Bekmuratov Qadirbergen Quwanishbaevich</b>	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish.....	158
<b>Hotamov Lochinbek Uktam o'g'li</b>	
Improving Speaking Skills Through Authentic Videos Abstract .....	162
<b>Imamaliyeva Gulnoza Ulug'bekovna</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi (pedagogik ritorika fani misolida).....	168
<b>Ismoilov Muhammadkarim Miraxmat o'g'li</b>	
Boshlang'ich ta'limda kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik asoslari (2-sinf rus tili darslari misolida) .....	170
<b>Jabborova Muslima Toxirovna</b>	
Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion mexanizmlari .....	175
<b>Karimova Barno Ergashevna</b>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari .....	178
<b>Mamanazar Djumayev</b>	
Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning pedagogik-didaktik asoslari .....	187
<b>Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna</b>	
Regbi mashg'ulotlari jarayonida talabalarining tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning differensial metodikasi .....	191
<b>Nematov Bahodirbek Baxtiyor o'g'li</b>	
Oila muhitida siblinglararo munosabatlarda psixologik manipulyatsiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari...	195
<b>Nishanova Zulfizar Yashin qizi</b>	

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holati hamda innovatsion ta'lim texnologiyalari va tpack yondashuvi asosida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish .....	199
<i>Nozimabonu Tojiboyeva</i>	
Agressiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlari.....	204
<i>O'ktamova Shohida Odilbek qizi</i>	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik afzalliklari va xavflari.....	209
<i>Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li</i>	
Kichik tadbirkorlik subyektlarining hudud eksport salohiyatini oshirishga ta'sirining ekonometrik-statistik tadqiqi .....	214
<i>Boymatova Dildora Olim qizi, Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga tovush yo'nalishini aniqlashtirish metodikasi.....	218
<i>Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li</i>	
Bolalar folklori asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati .....	222
<i>Jo'raboyeva Mushtariy Jamoldin qizi</i>	
O'zbekistonda maktab ta'limida o'quvchilarning kasbiy salohiyatini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish .....	228
<i>Karimova Sarvinoz Hojiqurbonovna</i>	
Aqli zaif bolalarning so'zlashuv nutqiga qo'yiladigan talablar .....	233
<i>N. S. Mirbabayeva</i>	
Oliy ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya berish metodlari .....	237
<i>Kamalov Rustam Azizovich</i>	
Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda pedagogik mahoratini rivojlantirish xususiyatlari.....	241
<i>Shamsiyeva Sevara Yusupovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani rivojlantirishda loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.....	244
<i>Tangirqulov Elmurod Aliyarovich</i>	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish .....	248
<i>Toshtemirova Sarvinoz Obidovna</i>	
Shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'naltirilganligi guruhviy jipslikni belgilovchi individual omil sifatida .....	251
<i>Turayev Nurmuhammad Alibek Fozil o'g'li</i>	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar misolida).....	254
<i>G'ofurova Umida O'tkirbek qizi</i>	
The Role of Artificial Intelligence in Creating Interactive Methods in English.....	258
<i>Urozboyeva Mavluda Shukurlo qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari .....	262
<i>Xalikova Xurshida Abdullayevna</i>	
Suv ekotizimlarida turlar sonining kamayishini eDNA metabarkoding orqali aniqlash va uning oziq-ovqat xavfsizligidagi ahamiyati.....	267
<i>Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Izzatilloeva Umida Kamolovna</i>	
Asalarilar sonining kamayishi va global ekologik xavf.....	272
<i>Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Sayfulloyeva Dilnura Samandarovna</i>	
Enhancing A2 Learners' English Speaking Skills Through Short Stories With Structured Question-and-Answer Activities.....	276
<i>Xudoyberdiyeva G. Sh.</i>	
Кризис интеллигента и поиск смысла жизни в русской и мировой прозе XX Века: сравнительный анализ романов "Обломов" (И. Гончаров) и "Великий гатсби" (Ф. С. Фицджеральд) ..	280
<i>Аманова А. А., Саттарова М.</i>	
Понятие профессиональной ориентации и ее педагогическая сущность .....	285
<i>Каримова Наргиза Абдугафуровна</i>	
Talabalarning sun'iy intellektli ta'limiy vositalarni loyihalash kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari .....	289
<i>Toxirov Feruz Jamoliddinovich</i>	



Maktab ta'lim tizimida STEAM yondashuvini joriy etishda loyiha boshqaruvining roli va samaradorligi ..... 293 <a href="#">Avalboyeva Mavluda Abdumalikovna</a>	293
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari ..... 300 <a href="#">Xodjayeva Matlyuba Rustamovna</a>	300
Biologiya darslarida interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish .... 304 <a href="#">Hayitov Abdurasul Eshdavlatovich, Anvarjonova Odinaxon Xayrullo qizi, Rahimova Fazilat Akrom qizi</a>	304

# AGRESSIV XULQNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

O'ktamova Shohida Odilbek qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti  
"Pedagogika va psixologiya" kafedrası dotsenti, ps.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada agressiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlari, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi biologik, psixologik, oilaviy, ijtimoiy-madaniy hamda kommunikativ omillar nazariy jihatdan tahlil qilingan. Agressiya va agressiv xulq tushunchalarining psixoanalitik, frustratsion-agressiv, ijtimoiy o'rganish, biologik va kognitiv yondashuvlar asosidagi talqinlari yoritilgan. Shuningdek, o'spirinlik davrida agressiv xulqning yuzaga kelishida oilaviy muhit, tarbiya uslublari, tengdoshlar guruhi, kiberbulling, emotsional beqarorlik, past empatiya va o'zini nazorat qilish qobiliyatining yetarli rivojlanmaganligi muhim omillar sifatida ko'rsatib berilgan. Maqolada agressiv xulqning jismoniy, verbal, passiv, ijtimoiy, instrumental va ekspressiv shakllari tavsiflanib, uning shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy moslashuv va ruhiy salomatlikka salbiy ta'siri asoslangan. Tadqiqot natijalari agressiv xulqni erta aniqlash, profilaktika qilish va psixokorreksion ishlarni samarali tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** agressiya, agressiv xulq, ijtimoiy-psixologik determinantlar, o'spirinlik davri, oilaviy muhit, tengdoshlar ta'siri, emotsional beqarorlik, empatiya, frustratsiya, psixokorreksiya.

**Abstract:** This article provides a theoretical analysis of the socio-psychological determinants of aggressive behavior and the biological, psychological, family-related, socio-cultural, and communicative factors influencing its formation. The concepts of aggression and aggressive behavior are interpreted on the basis of psychoanalytic, frustration-aggression, social learning, biological, and cognitive approaches. Special attention is paid to the role of the family environment, parenting styles, peer influence, cyberbullying, emotional instability, low empathy, and insufficient self-control in the manifestation of aggressive behavior during adolescence. The article describes physical, verbal, passive, social, instrumental, and expressive forms of aggressive behavior and substantiates their negative impact on interpersonal relationships, social adaptation, and mental health. The findings indicate the importance of early identification of aggressive behavior, its prevention, and the organization of effective psychocorrectional work.

**Key words:** aggression, aggressive behavior, socio-psychological determinants, adolescence, family environment, peer influence, emotional instability, empathy, frustration, psychocorrection.

**Аннотация:** В данной статье теоретически анализируются социально-психологические детерминанты агрессивного поведения, а также биологические, психологические, семейные, социально-культурные и коммуникативные факторы, влияющие на его формирование. Раскрываются особенности понимания понятий агрессии и агрессивного поведения в рамках психоаналитического, фрустрационно-агрессивного, социально-когнитивного, биологического и когнитивного подходов. Особое внимание уделяется роли семейной среды, стилей воспитания, влияния сверстников, кибербуллинга, эмоциональной неустойчивости, низкого уровня эмпатии и недостаточно развитой способности к самоконтролю в проявлении агрессивного поведения в юношеском возрасте. В статье описываются физические, вербальные, пассивные, социальные, инструментальные и экспрессивные формы агрессивного поведения, а также обосновывается их негативное влияние на межличностные отношения, социальную адаптацию и психическое здоровье личности. Результаты теоретического анализа показывают необходимость раннего выявления агрессивного поведения, его профилактики и организации эффективной психокоррекционной работы.

**Ключевые слова:** агрессия, агрессивное поведение, социально-психологические детерминанты, юношеский возраст, семейная среда, влияние сверстников, эмоциональная неустойчивость, эмпатия, фрустрация, психокоррекция.

## KIRISH

Globalashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi hamda zamonaviy jamiyatda raqobat muhitining kuchayishi shaxs kamolotiga, ayniqsa, o'spirinlik davridagi psixik va ijtimoiy rivojlanish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'spirinlik yoshi inson hayotidagi eng



murakkab, ziddiyatlarga boy, psixofiziologik va ijtimoiy o'zgarishlar keskin kechadigan davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda shaxsning o'zini anglash jarayoni faollashadi, mustaqil fikrlash, qadriyatlarni qayta ko'rib chiqish, ijtimoiy mavqe izlash va o'z "Men"ini tasdiqlash ehtiyoji kuchayadi. Ushbu jarayonlar ba'zan konstruktiv shaklda, ba'zan esa destruktiv ko'rinishda namoyon bo'ladi. Destruktiv xulq-atvor shakllaridan biri sifatida agressiv xulq alohida e'tiborni talab etadi.

Inson xulq-atvori murakkab va ko'p qirrali fenomen bo'lib, unda agressiya muhim o'rin tutadi. Agressiya va agressiv xulq psixologik nazariyalar, empirik tadqiqotlar va ijtimoiy amaliyotda keng o'rganilgan tushunchalardir. Ular shaxsning o'z maqsadlari, ehtiyojlari yoki qarama-qarshi obyektlar bilan munosabatda bo'lish jarayonida namoyon bo'lgan psixologik jarayonlar to'plamini ifodalaydi. Agressiyaning aniqlanishi turlicha bo'lsa-da, u odatda boshqa shaxslar yoki muhitga zarar yetkazish potentsialiga ega bo'lgan xatti-harakat, fikr yoki emotsiyalarning namoyon bo'lishi sifatida talqin qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Agressiya termini lotincha "aggression" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "hujum", "to'sqinlik qilish", "turli qarama-qarshiliklar" ma'nolarini anglatadi.

Psixologiya fanida agressiya va agressivlik tushunchalari turli nazariy yondashuvlar doirasida talqin etilgan. Xususan, agressiya haqidagi quyidagi nazariyalar mavjud:

- 1. Psixoanalitik yondashuv.** Z. Freyd agressiyani inson tabiatining tug'ma qismi deb hisoblagan. Uning fikricha, insonda hayot instinkti bilan bir qatorda o'lim instinkti ham mavjud bo'lib, agressiya ana shu destruktiv energiyaning tashqi namoyon bo'lishidir. Freyd agressiyani inson psixikasidagi ichki ziddiyatlar natijasi sifatida talqin qilgan.
- 2. Frustratsiya–agressiya nazariyasi.** J. Dollard va hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan mazkur nazariyaga ko'ra, frustratsiya (maqsadga erishishdagi to'siq) agressiyani keltirib chiqaradi. Inson o'z ehtiyojlari qondirilmaganida yoki maqsadiga erisha olmaganida g'azablanadi va bu holat agressiv xulqqa olib kelishi mumkin. Keyinchalik L. Berkowitz mazkur nazariyani takomillashtirib, har qanday frustratsiya emas, balki salbiy emotsional holatlar agressiya ehtimolini oshirishini ta'kidlagan.
- 3. Ijtimoiy o'rganish nazariyasi.** A. Bandura agressiyani o'rganilgan xulq shakli deb hisoblagan. Uning mashhur "Bobo qo'g'irchoq" tajribalari bolalar kattalarning agressiv harakatlarini kuzatib, ularga taqlid qilishini ko'rsatgan.

Ushbu nazariyaga ko'ra, agressiv xulq quyidagi omillar orqali shakllanadi:

- kuzatish va taqlid qilish;
  - mukofotlash va jazolash tizimi;
  - oilaviy muhit;
  - ommaviy axborot vositalari;
  - tengdoshlar ta'siri.
- 4. Biologik yondashuv.** Biologik nazariya vakillari agressiyaning paydo bo'lishida irsiy xususiyatlar, asab tizimi faoliyati, gormonlar va miya strukturalarining rolini ta'kidlaydilar. Ayniqsa, testosteron gormonining yuqori darajasi va limbik tizim faoliyati agressiv reaksiyalar bilan bog'liq ekanligi aniqlangan.

Biroq zamonaviy psixologiya agressiyani faqat biologik omillar bilan emas, balki ijtimoiy muhit ta'siri bilan ham izohlaydi.

Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan agressiv xulqning shakllanishida kommunikativ ko'nikmalar, empatiya darajasi, ijtimoiy intellekt, stressga chidamlilik va konfliktni boshqarish qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi. Agar o'spirin o'z hissiyotlarini adekvat ifodalashni, muammolarni muloqot orqali hal qilishni o'rganmagan bo'lsa, u agressiv xatti-harakatni eng oson va tezkor vosita sifatida tanlashi mumkin.

Oila – o'spirin shaxsining dastlabki ijtimoiylashuv maktabi. Oiladagi nizolar, zo'rovonlik, ota-onaning o'zaro hurmatsizligi, bolaga nisbatan jismoniy yoki psixologik bosim agressiv modelni mustahkamlaydi. Ota-onaning haddan tashqari qattiqqo'lligi yoki, aksincha, befarqligi ham shaxsning emotsional rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'spirin o'z ehtiyojlari qondirilmaganda yoki e'tibor yetishmaganda agressiv xulq orqali o'ziga e'tibor qaratishga urinishi mumkin.

Psixologiyada agressiya - bu shaxsning maqsadli xulq-harakati bo'lib, boshqalarga zarar yoki qiynoqqa solish niyatida yoxud zarar yetkazish potentsialiga ega bo'lgan harakatlar, emotsiyalar yoki fikrlarni o'z ichiga oladi. Bu keng qamrovli tushuncha bo'lib, u nafaqat jismoniy hujumni, balki so'z orqali tahdid, nojo'ya ifoda,

passiv qarama-qarshilik yoki psixologik bosimni ham qamrab oladi. Farq shundaki, agressiya faqat tashqi ko'rinish emas - u shaxs ichidagi ichki psixologik jarayonlarning natijasi hamdir. Shuning uchun agressiyani faqat birgina xulq deb emas, balki motivatsiya, emotsiya, kognitsiya va kontekst o'rtasidagi murakkab aloqa deb hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Agressiv xulq - agressiya konseptining yanada amaliy ko'rinishi bo'lib, u shaxsning tashqi muhit bilan o'zaro aloqada bo'lish jarayonida paydo bo'lgan konkret xatti-harakatlar to'plamini anglatadi. Bu xulq, asosan, ijtimoiy kontekstda o'lchanadi va ko'pincha tashqi kuzatuvchilar tomonidan aniqlanadi. Masalan, jismoniy to'sqinlik, qo'pol so'zlar, boshqa odamlarni behurmat qilish, bo'ysunmaslik yoki agressiv jestlar - bularning barchasi agressiv xulqqa kiradi.

Ilmiy adabiyotlarda ba'zan agressiya va agressiv xulq atamaları bir-birining o'rnida ishlatiladi, ammo texnik nuqtai nazardan quyidagicha farqlanishi mumkin.

A. Banduraning fikricha, agressiya faqat ichki instinktlar yoki frustratsiyalar natijasi emas, balki ijtimoiy o'rganish va taqlid jarayonidir. Bandura bolalar bilan o'tkazgan mashhur "Bobo qo'g'irchoq" tajribasida shuni ko'rsatdiki, agar bola kattalarning hujumkor xatti-harakatlarini tomosha qilsa, u ham shunday xulqni takrorlaydi.

Bandura nazariyasi asosida agressiv xulq quyidagi asosiy komponentlarga ega deb qaraladi:

1. **Amplifikatsiya** - atrofda shaxslar tomonidan qo'llab-quvvatlangan agressiya darajasi oshadi.
2. **Kuchaytirish** - ijobiy natijalar (masalan, hurmat, e'tibor) agressiyani mustahkamlaydi.
3. **Modellashtirish** - boshqalarning hujumkor xulqini tomosha qilish uni takrorlashga olib keladi.

Kognitiv nazariyalar agressiyani shaxsning fikrlash jarayoni bilan bog'laydi. Agressiv shaxslar ko'pincha boshqalar xatti-harakatlarini noto'g'ri talqin qiladi (masalan, neytral holatni tahdid deb qabul qilish). Bu nazariyaga ko'ra, agressiyaning sabablari shaxsning kognitiv stereotiplari, baholash uslublari va ijtimoiy xotira jarayonlari bilan bog'liq.

Agressiya ko'plab shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Psixologik adabiyotlarda quyidagi asosiy turlari ajratiladi:

1. **Jismoniy agressiya.** Bu tur odamning boshqa shaxsga to'g'ridan to'g'ri zarar yetkazishi bilan tavsiflanadi. Misollar: urish, itarish, jarohat yetkazish.
2. **Verbal agressiya.** So'z orqali ifodalanuvchi hujum - baqirish, tahqirlash, qarama-qarshilikda shafqatsiz yoki haqoratli nutq.
3. **Passiv agressiya.** Bevosita zarar yetkazmasdan, sovuq munosabat, bo'ysunmaslik, topshiriqlarni bajarimaslik kabi harakatlar orqali bildiruvchi agressiya.
4. **Ijtimoiy agressiya.** Bu guruh ichida tashqi bosim, inkor qilish, yolg'on tarqatish, bo'linishlarni keltirib chiqarish orqali amalga oshiriladi.
5. **Instrumental va ekspressiv agressiya.** Instrumental (maqsadli) agressiya - maqsadga erishish uchun qasddan amalga oshiriladi (masalan, raqobatda g'olib bo'lish).
6. **Ekspressiv (emotsional) agressiya.** Kuchli hissiyotlar natijasida yuzaga keladi (g'azab, jahldorlik).

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot agressiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlarini nazariy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning bir qator umumiy va maxsus metodlaridan foydalanildi. Xususan, agressiya va agressiv xulq muammosiga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, dissertatsiyalar va ilmiy maqolalar qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganildi.

Tadqiqot davomida qiyosiy taqqoslash metodidan foydalanilib, agressiya va agressiv xulq tushunchalarining turli psixologik maktablar hamda nazariy yondashuvlar doirasidagi talqinlari o'zaro solishtirildi. Jumladan, psixoanalitik, frustratsiya-agressiya, ijtimoiy o'rganish, biologik va kognitiv nazariyalarning asosiy g'oyalari tahlil qilinib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi.

Shuningdek, tizimli tahlil metodi yordamida agressiv xulqning shakllanishiga ta'sir etuvchi biologik, psixologik, oilaviy, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ omillar o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Nazariy manbalarni umumlashtirish va ilmiy xulosalash metodlari asosida agressiv xulqning asosiy ijtimoiy-psixologik determinantlari ajratib ko'rsatildi hamda ularning o'spirin shaxsining rivojlanishiga ta'siri tavsiflandi.

Tadqiqot natijasida agressiv xulqning yuzaga kelishi ko'p omilli xarakterga ega ekanligi, uning shakllanishida oilaviy muhit, tengdoshlar ta'siri, emotsional beqarorlik, past empatiya darajasi, frustratsiya va zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarining ta'siri muhim omillar hisoblanishi aniqlandi. Olingan natijalar agressiv xulqni erta aniqlash, profilaktika qilish va psixokorreksion ishlarni samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Agressiyaning paydo bo'lishi ko'p omilli jarayon bo'lib, quyidagi omillar katta rol o'ynaydi:

- 1. Biologik omillar.** Genetika, neyrotransmitterlar darajasi (masalan, serotonin), gormonlar (testosteron), miya strukturasi va asab tizimi funksiyasi agressiv xulqqa ta'sir ko'rsatadi.
- 2. Psixologik omillar.** Shaxsiyat xususiyatlari: impulsivlik, past frustratsiyaga chidamlilik yoki past empatiya agressiyani oshiradi.

Kognitsiyalar: noaniq baholash, boshqalarni tahdidli deb qabul qilish.

O'tgan tajribalar: bolalik davridagi tajovuzlar, oilaviy konfliktlar.

### 3. Ijtimoiy-madaniy omillar:

- oilaviy muhit;
- madaniy qadriyatlar;
- ijtimoiy rollar;
- nizolar va stress holatlari.

Agressiv xulq shaxsning psixologik va ijtimoiy farovonligiga salbiy ta'sir qiladi:

- ruhiy salomatlikning pasayishi;
- stress va bezovtalik darajasining oshishi;
- ijtimoiy aloqalarning buzilishi;
- ish va oila muhitidagi konfliktlar.

Bundan tashqari, agressiv shaxs o'zini mustaqil boshqarolmasligi sababli ijtimoiy izolyatsiyaga uchrashi, depressiya yoki salbiy xulq buzilishlariga olib kelishi mumkin.

Agressiyani boshqarish psixologik, ijtimoiy va shaxsiy darajalarda amalga oshiriladi.

#### 1. Individual darajada:

- stressni boshqarish texnikalari;
- kognitiv-xulq terapiyasi;
- meditatsiya va chuqur nafas olish.

#### 2. Ijtimoiy darajada:

- zo'ravonlikni oldini olish dasturlari;
- maktab va jamiyatda konfliktni hal qilish treninglari;
- oilaga psixologik yordam.

Agressiyaning ijtimoiy-madaniy omillari:

- 1. Madaniyat va qadriyatlar.** Turli jamiyatlarda aggressiyaning qabul qilinishi farq qiladi. Ba'zi madaniyatlar raqobatni rag'batlantiradi va agressiyani ijobiy narsa sifatida baholashi mumkin, boshqalari esa agressiyani qat'iy rad etadi.

- 2. Oilaviy muhit.** Oiladagi zo'ravonlik, tarbiyaviy metodlar, ota-onalar o'rtasidagi konfliktlar bolada agressiv xulq shakllanishiga olib keladi.

Agressiyaning ijtimoiy oqibatlar:

- 1. Shaxsiy darajada.** Agressiv odamlar aloqalarni yo'qotishi, ish joyida konfliktlarga duchor bo'lishi, ruhiy holatining yomonlashuvi hamda ijtimoiy izolyatsiyaga uchrashi mumkin.
- 2. Jamiyat darajasida.** Agressiya ko'p bo'lgan jamiyatlarda jinoyatchilik darajasi oshadi, iqtisodiy faoliyat pasayadi, ijtimoiy ishonch buziladi.

Demak, agressiv xulqning shakllanishi ko'p omilli jarayon bo'lib, uning yuzaga kelishi biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri bilan belgilanadi. Agressiya inson xulq-atvorining murakkab shakli sifatida nafaqat ichki emotsional holatlar, balki tashqi ijtimoiy muhit ta'siri natijasida ham namoyon bo'ladi. Agressiv

xulqning asosiy ijtimoiy-psixologik determinantlari sifatida oilaviy muhit, tarbiya uslublari, tengdoshlar ta'siri, ta'lim muassasasidagi munosabatlar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari ta'siri muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Ayniqsa, oiladagi nizoli munosabatlar, jismoniy jazo, emotsional sovuqlik va nazoratning noto'g'ri tashkil qilinishi agressiv xulqning shakllanishi uchun qulay psixologik zamin yaratadi.

Shuningdek, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, jumladan, impulsivlik, emotsional beqarorlik, past darajadagi empatiya, frustratsiyaga chidamsizlik, o'zini nazorat qilish qobiliyatining yetarli rivojlanmaganligi agressiv reaksiyalarning namoyon bo'lish ehtimolini oshiradi. Tengdoshlar guruhidagi salbiy ta'sirlar, ijtimoiy rad etilish, kiberbulling va virtual muhitdagi tajovuzkor kontentlar ham agressiv xulqning kuchayishiga xizmat qiladi. Agressiv xulqning jismoniy, verbal, bilvosita, ijtimoiy, instrumental va emotsional shakllarda namoyon bo'lishi uning turli psixologik mexanizmlarga asoslanishini ko'rsatadi. Bu esa mazkur hodisani o'rganishda kompleks yondashuvni talab etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mavzuga oid nazariy va ilmiy-metodologik manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, agressiya va agressiv xulq psixologiya fanining dolzarb va ko'p qirrali muammolaridan biri hisoblanadi. Agressiya shaxsning emotsional holati, kognitiv jarayonlari, motivatsion sohasi hamda ijtimoiy munosabatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab psixologik fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Agressiv xulq esa agressiyaning tashqi ko'rinishi bo'lib, u jismoniy, verbal, bilvosita, ijtimoiy va autoagressiv shakllarda ifodalanishi mumkin.

O'spirinlik yoshi shaxs rivojlanishining muhim va mas'uliyatli bosqichi bo'lib, mazkur davrda jismoniy, emotsional, intellektual va ijtimoiy sohalarida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. O'zini anglashning kuchayishi, mustaqillikka intilish, hayotiy maqsadlarni belgilash, kasbiy o'zini o'zi aniqlash hamda tengdoshlar bilan munosabatlarning yetakchi ahamiyat kasb etishi ushbu yosh davrining muhim psixologik xususiyatlari hisoblanadi. Ayni paytda emotsional beqarorlik, yuqori ta'sirchanlik, ichki ziddiyatlar va ijtimoiy bosimlar ayrim holatlarda agressiv xulqning shakllanishi uchun qulay sharoit yaratishi mumkin.

Mavzuning nazariy tahlili davomida agressiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlari sifatida oilaviy muhit, tarbiya uslublari, tengdoshlar ta'siri, ta'lim muassasasidagi munosabatlar, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, stressli vaziyatlar hamda zamonaviy axborot makonining ta'siri muhim omillar ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, oiladagi nizolar, emotsional qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi, tengdoshlar tomonidan rad etilish, ijtimoiy adolatsizlikni his qilish va kiberbulling holatlari o'spirinlarda agressiv reaksiyalarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, agressiv xulqning yuqori darajasi shaxslararo munosabatlarning buzilishi, ijtimoiy moslashuvning qiyinlashishi, ta'lim samaradorligining pasayishi, deviant va delinkvent xulqning shakllanishi kabi salbiy oqibatlarga sabab bo'lishi aniqlandi. Binobarin, agressiv xulqni erta aniqlash, uning psixologik mexanizmlarini o'rganish hamda profilaktika va korreksiya ishlarini tashkil etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Umuman olganda, amalga oshirilgan nazariy tahlillar o'spirinlarda agressiv xulqning shakllanishi ko'p omilli xarakterga ega ekanligini, uning paydo bo'lishi va namoyon bo'lishi shaxsning individual xususiyatlari hamda ijtimoiy muhit ta'siri bilan belgilanishini ko'rsatdi. Bu esa tadqiqotning keyingi bosqichlarida o'spirinlarda agressiv xulqning psixologik xususiyatlarini empirik jihatdan o'rganish va uni profilaktika hamda korreksiya qilishga

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бобнева М.И. Социальные нормы и регуляция поведения. - М.: Наука, 2008.
2. Бэрон Р., Ричардсон Д. Агрессия. С.-П., 2017.
3. Do'stmuhamedova Sh.A., Nishanova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya – Toshkent: O'qituvchi, 2013. - 343 b.
4. Ениколов С.Н. Психология агрессии: основные подходы // Вестник псковского вольного университета. Том 1, 2014.
5. Раттер М. Помощь трудным детям. - М., Владос- Пресс, 2018.
6. Румянцева Т.Г. Понятие агрессивности в современной зарубежной психологии // Вопр. психологии. №1. 2011.
7. Umarov B.M. O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari: Avtoref. dis. ... dok. psixol. – T.: 2009. – 44 b.
8. Yadgarova G.T. Noto'liq oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2004. –145 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.